



Milliy va chet el valyutasida pul o'tkazmalari

Yangilangan sana: Tue, Dekabr, 11, 2018

Xalq banki korporativ va xususiy mijozlar uchun SWIFT tizimi bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarni va pul o'tkazmalarini amalga oshiradi. Agar Sizga chet elga yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobraqamiga pul mablag'larini o'tkazish zarur bo'lsa, SWIFT pul o'tkazmasi bu vazifaning eng yaxshi yechimi bo'ladi. SWIFT moliyaviy aloqalarning ilg'or xalqaro tizimi bo'lib, jahonning barcha davlatlari hududida pul oqimlarini o'tkazishni qo'llab-quvvatlaydi. SWIFT tizimi istalgan chet el valyutasida pul o'tkazish imkoniyatini beradi

SWIFT pul o'tkazmalarini qaysi davlatlarga jo'natish mumkin?

SWIFT kommunikatsiya tizimiga 5 000 dan ortiq moliyaviy muassasalar va 150 000 dan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatish shoxobchalari kiradi, bu esa jahonning istalgan davlatiga pul o'tkazmasini jo'natish va olish imkonini yaratadi.

Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun hisobraqam ochish kerakmi?

SWIFT tizimi bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish bankda hisobraqam ochilishi bilan amalga oshiriladi.

SWIFT pul o'tkazmasini qanday amalga oshirish lozim?

SWIFT tizimi bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish uchun Sizga faqat pul o'tkazmasini oluvchining aniq ma'lumotlarini bilish (oluvchining nomi / ismi va hisobvarag'ining raqami ko'rsatilishi, oluvchi bankining aniq nomi, uning manzili va SWIFT — kodi), hisobraqam ochilishi uchun yoningizda pasport bo'lishi (jismoniy shaxslarga) kerak.

Nega aynan SWIFT pul o'tkazmasi?

SWIFT tizimi bo'yicha pul o'tkazmalarining tariflari boshqa yirik pul o'tkazmalari tizimlarining tariflaridan sezilarli darajada past

Pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun Siz Bankimizning quyida keltirilgan vakil banklaridan birortasini tanlashingiz mumkin*:

Pul o'tkazmasi valyutasi	Vakil Bank
AQSh dollarlari	JP MORGAN CHASE BANK, N.A. New York, N.Y. SWIFT Code: CHASUS33
	Commerzbank AG Frankfurt am Main SWIFT Code: COBADEFF
	RAIFFEIZEN BANK INTERNATIONAL, AUSTRIA SWIFT Code: RZBAATWW
	SPARKASSE AACHEN, GERMANY SWIFT Code: AACSD33
Pul o'tkazmasi valyutasi	Vakil Bank
Evro	Commerzbank AG Frankfurt am Main SWIFT Code: COBADEFF
	SPARKASSE AACHEN, AACHEN SWIFT Code: AACSD33

Bankimizning rekvizitlari:

SC PEOPLE'S BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, TASHKENT
SWIFT Code: SCPEUZ22

Izoh:

Vakil bank undiruvchi vositachilik haqini kamaytirish uchun biz Sizga vakil bank O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq Banki uchun, ham chet el hamkorining banki uchun umumiy vakil bank bo'lgan jadvalda taklif qilingan yo'llardan birini tanlashni taklif etamiz.
